

Date: 17th June-2025

BOSHLANG'ICH SINFDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIMNING O'ZARO UZVIYILIGI VA UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH

Ashurov Nazar Raxmatullaevich

International school of finance technology and science instituti "Psixologiya va pedagogika" kafedrası, dotsenti

Kalit so'zlar: Mehnat, hurmat, qiziqish, oddiy texnologiya, anglash, jamoada ishlash, tinglash, muloqot, shaxsiy mas'uliyat, oddiy chiziq, chizish, qog'ozni buklash, geometriya, maketlar yasash, multimedii.

Annotatsiya: Ta'lim mazmunini yangilash, uni amaliy yechimlarga bog'lash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsad qilingan. Bu jarayonda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichidagi fanlar orasida texnologiya fanining ahamiyati yuqori. Texnologiya fani bolalarda amaliy ko'nikma, mehnatga bo'lgan qiziqish, hamkorlikda ishlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Fan mazmunining bosqichma-bosqich shakllanishi, balki ta'lim jarayonining to'g'ri rejalashtirilishi, metodik yondashuv va pedagogning rolini ham o'z ichiga oladi.

Ключевые слова: Работа, уважение, любопытство, простая технология, понимание, работа в команде, слушание, общение, личная ответственность, простая линия, рисование, складывание бумаги, геометрия, создание моделей, мультимедиа.

Annotatsiya: sel — razvitie u detey samostoyatel'nogo myshleniya, tvorcheskogo podxoda i jiznennykh navykov putem obnovleniya soderjaniya obrazovaniya, privyazki yego k prakticheskim resheniyam i vnedreniya sovremennykh pedagogicheskix texnologiy. V etom protsesse texnologii imeyut osoboe znachenie sredi predmetov na urovne nachalnogo obrazovaniya. Texnologii igrayut vajnyuyu rol v razvitii u detey prakticheskix navykov, interesa k rabote i umeniya rabotat v komande. On predpolagaet poetapnoe formirovanie soderjaniya predmeta, a takzhe pravilnoe planirovanie uchebnogo protsessa, metodicheskij podxod i rol prepodavatelya.

Key words: work, respect, curiosity, simple technology, understanding, teamwork, listening, communication, personal responsibility, simple line, drawing, paper folding, geometry, model making, multimedia, work, respect, curiosity, simple technology, understanding, teamwork, listening, communication, personal responsibility, simple line, drawing, paper folding, geometry, model making, multimedia

Abstract: The goal is to develop independent thinking, creativity and life skills in children by updating the content of education, linking it to practical solutions and introducing modern pedagogical technologies. In this process, technologies are of particular importance among subjects at the primary level. Technologies play an important role in developing children's practical skills, interest in work and ability to work in a team. It involves the gradual formation of the subject content, as well as the correct planning of the educational process, the methodological approach and the role of the teacher.



Date: 17th June-2025



Kirish. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida yangi talab va yondashuvlar shakllanmoqda. Ta'lim mazmunini yangilash, uni amaliy echimlarga bog'lash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarda mustaqil kreativlik fikrlash, ijodiy qobiliyati, ijodiy yondashuv va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsad qilingan. Bu jarayonda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichidagi fanlar orasida texnologiya fanining ahamiyati yuqori. Texnologiya fani bolalarda amaliy ko'nikma, mehnatga bo'lgan qiziqish, hamkorlikda ishlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda texnologiya fanini o'qitishda ta'limning o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash masalalari boshlang'ich sinfda texnologiya fanini o'qitishda ta'limning o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. Ushbu masala nafaqat fan mazmunining bosqichma-bosqich shakllanishi, balki ta'lim jarayonining to'g'ri rejalashtirilishi, metodik yondashuv va pedagogning rolini ham o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Texnologiya fani orqali o'quvchilar hayotda kerak bo'ladigan qator ko'nikma va tushunchalarni egallaydi. Ular orasida:

- mehnatga hurmat va qiziqish;
- oddiy texnologiya jarayonlarini anglash va ularni amalda qo'llash;
- jamoada ishlash, bir-birini tinglash va muloqot qilish;
- shaxsiy mas'uliyat va natijalar uchun javobgarlik.

Boshlang'ich sinflarda ushbu ko'nikmalar bosqichma-bosqich, ya'ni sinfdan sinfga o'tayotganda murakkablashib borishi kerak. Masalan, 1-sinfda qaychi bilan kesishni o'rgangan bola 4-sinfda maket tayyorlash, turli materiallar bilan ishlashni boshlashi mumkin.

Boshlang'ich ta'limning uzviyligi – mazmun va metodika jihatidan yondashuv

Ta'limning uzviyligi deganda har bir sinfda o'rganiladigan mavzular va amaliy mashg'ulotlar o'zaro bog'liq, tizimli va bosqichma-bosqich murakkablashib borishi tushuniladi. Bunda quyidagi yondashuvlar muhim:

1. **Mavzu va amaliy mashg'ulotlar uzviyligi:** 1-sinfda oddiy chiziq chizish yoki qog'ozni buklash kabi mashqlar qilinsa, keyingi sinflarda bu mashqlar geometriya asosida maketlar yasashga olib keladi.

2. **Mashg'ulotlar turli fanlar bilan bog'lanishi:** Masalan, tabiatshunoslik darslarida o'rganilgan moddalarning xossalari Texnologiya fanining ish jarayonlarida foydalaniladi.

3. **O'quvchi salohiyatini inobatga olish:** Har bir sinfdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda mashg'ulotlar tanlanadi.

Ta'limning uzluksizligi – davomiylik va maqsadli rejalashtirish

Ta'limning uzluksizligi ta'lim jarayonining uzilib qolmasdan, rejali, mantiqiy va bir maqsadga qaratilgan holda olib borilishini anglatadi. Buning uchun:

O'qitish metodlari va vositalari

Date: 17th June-2025

Texnologiya fanini samarali o'qitishda quyidagi metod va usullar o'z samarasini beradi:

- **Loyiha usuli** – bolalarni guruhlarda ishlash, o'z fikrini bildirish va yakka yoki jamoaviy mahsulot yaratishga o'rgatadi.
 - **Amaliy mashg'ulotlar** – faqat nazariya emas, balki qo'l bilan biror mahsulot yaratish.
 - **Interaktiv o'yinlar** – mashg'ulotlarni qiziqarli va shijoatli qilish.
 - **Axborot texnologiyalari** – multimediali darslar orqali ko'rgazmalilikni oshirish.
 - har bir sinf uchun aniq maqsadlar belgilanishi;
 - o'quv dasturidagi mavzular oldingi sinf bilan uyg'un va kelgusi sinfga tayyorlovchi bo'lishi;
 - o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchi salohiyatini baholab borishi kerak.
- Ushbu yondashuv orqali bolalar har yili yangi ko'nikmalarni egallab borishadi, bu esa ularda doimiy rivojlanish hissini uyg'otadi.

Xulosa va takliflari

Ta'limning uzviyligi va uzluksizligiga xalal berishi mumkin bo'lgan ayrim omillar:

- fanlar o'rtasida yetarlicha hamkorlik yo'qligi;
- o'quv dasturlarining bir-biridan uzoqligi;
- metodik qo'llanmalarining yetarli emasligi;
- o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi past bo'lishi.

Boshlang'ich sinfda texnologiya fanini o'qitishda ta'limning o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash boshlang'ich sinfda texnologiya fanini o'qitishda ta'limning o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash muammolarni hal etish uchun:

1. barcha sinflar uchun uzviy metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
2. o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
3. fanlararo integratsiyani rivojlantirish;
4. o'quvchilarni baholash tizimini takomillashtirish zarur.

Boshlag'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bolalarda mehnatga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga poydevor bo'ladi. O'quv dasturi, metodika, o'qituvchi va ta'lim muhiti o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash orqali ushbu maqsadlarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-son farmoni.
2. R.A. Mavlonova va boshqalar "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2007 yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Texnologiya va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil



Date: 17th June-2025

4. Ashurov N.R, Umbarova N.X. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qog'oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. "Monografiya" Denov -2022, 160 b.

